

**MOYCHECHAK O‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA UNING
TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI**

Mirzamaxmudova Dinora Zafar qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, talabasi

Rahbar:

Turg‘unov Davron Elibekovich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada moychechak o‘simligining morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, dorivor xususiyatlari hamda tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishi haqida ilmiy ma‘lumotlar keltiriladi. Moychechak tarkibida efir moylari, flavonoidlar, kumarinlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud bo‘lib, ular organizmga yallig‘lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, antiseptik hamda spazmolitik ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada moychechak asosida dorivor preparatlar tayyorlashning ahamiyati, uning farmakologik xususiyatlari hamda inson salomatligiga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Moychechak, dorivor o‘simliklar, efir moylari, biologik faol moddalar, flavonoidlar, shifobaxsh xususiyatlar, farmakologik ta‘sir, tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishi.*

KIRISH

Moychechak qadim zamonlardan buyon dorivor o‘simlik sifatida xalq tabobati hamda zamonaviy tibbiyot amaliyotida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu o‘simlik gulli o‘simliklar sinfiga kiruvchi Asteraceae (Astradoshlar) oilasiga mansub bo‘lib, dorivor xususiyatlari bilan ajralib turadi. Moychechak jinsining ilmiy nomi *Matricaria* bo‘lib, u lotincha *matrix* yoki *matricis* so‘zidan olingan va “bachadon o‘ti” degan ma‘noni anglatadi. Bu nom o‘simlikning qadimdan ayollar kasalliklarini davolashda qo‘llanilganligi bilan bog‘liq.

Moychechak bir yillik o‘simlik bo‘lib, odatda o‘tgan yildan qolgan urug‘laridan erta bahorda unib chiqadi, tez rivojlanadi hamda may oyining ikkinchi yarmidan boshlab gullay boshlaydi. O‘simlik tarkibida efir moylari, flavonoidlar, kumarinlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud bo‘lib, ular inson organizmiga turli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli moychechak turli kasalliklarni davolash va ularning oldini olishda muhim dorivor o‘simliklardan biri hisoblanadi hamda farmatsevtika va tibbiyot sohalarida keng qo‘llaniladi.

ASOSIY QISM

Moychechak o‘simligining morfologiyasi. Moychechak o‘simligi xalq orasida turli nomlar bilan ataladi. Jumladan, kal romashka, oq romashka, sariq romashka, it romashka, nemis romashkasi, tog‘ romashkasi, soxta romashka, oddiy romashka, oddiy oy romashka va ho‘kiz romashka kabi turlari mavjud. Ular orasida eng keng tarqalgan va mashhur turi oddiy romashka bo‘lib, dorivor hamda kosmetik maqsadlarda keng qo‘llaniladi. Moychechak

20-Mart, 2026-yil

Astradoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub bo‘lgan bir yillik o‘tsimon dorivor o‘simlik hisoblanadi. U madaniylashtirilgan holda ham, yovvoyi holatda ham o‘sishi mumkin. O‘simlikning poyasi tik o‘sovchi, shoxlangan va o‘ziga xos xushbo‘y hidga ega bo‘ladi. Barglari patsimon (pinnat) tuzilishga ega bo‘lib, navbatma-navbat joylashgan hamda mayda segmentlarga bo‘lingan. Yoz faslida moychechak o‘simligi gullab, oq rangli tilchasimon bargchalar (ligulalar) va markazida joylashgan sariq rangli mayda gullardan iborat gul to‘pgulini hosil qiladi. Moychechakning mevalari esa silindrsimon shakldagi akenlar deb ataladi.

Moychechakning dorivor xususiyatlari. Moychechak o‘simligi dorivor xususiyatlari sababli tashqi va ichki qo‘llash uchun keng foydalaniladi. U organizmda peshob, safro va balg‘am ajralishini kuchaytirishga yordam beradi, shuningdek, bavirusir kasalligini davolashda ham foydali hisoblanadi. Bundan tashqari, qovuq og‘rig‘i va taloq kasalliklarida ham shifobaxsh ta‘sir ko‘rsatadi. Ovqat hazm qilish tizimi bilan bog‘liq muammolarda moychechak damlamasi yoki infuziyasi qo‘llaniladi. Ayniqsa, og‘ir ovqatlardan keyin qabul qilinganda uning karminativ xususiyati organizmdagi gazlarning chiqib ketishiga yordam beradi. Buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino ham moychechak o‘simligini o‘z asarlarida ta‘riflab, uning qizdiruvchi va xiltni yetiltiruvchi xususiyatlarga ega ekanligini qayd etgan. Shuningdek, moychechak gastrit, oshqozon yarasi, jigar faoliyatini yaxshilash, qusishni keltirib chiqarish hamda oshqozon nervlarini tinchlantirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tabobatda qo‘llanilishi. Moychechak xalq tabobatida ham keng qo‘llaniladi. U bavirusir (gemorroy), o‘t pufagida tosh hosil bo‘lishi, ayollar jinsiy a‘zolari kasalliklari, homiladorlik davridagi toksikoz, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi, yarali kolit kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Moychechak gullaridan tayyorlangan turli dorivor shakllar — qaynatma, damlama, malham, sharbat va moylar — miya, bosh, tish, quloq va ko‘z og‘riqlarida, shuningdek asab tizimi, o‘pka, jigar va buyrak shamollash kasalliklarini davolashda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy tibbiyotda moychechak o‘simligi yallig‘lanishga qarshi, antiallergik, antibakterial, safro haydovchi, terlatadigan, mikroblarga qarshi, tinchlantiruvchi, antiseptik hamda og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Moychechak damlamasi oshqozon-ichak tizimi kasalliklari, shamollash, tomoq og‘rig‘i va turli teri yallig‘lanishlarini davolashda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, u yara va kuyishlarni davolash jarayonida ham foydali ta‘sir ko‘rsatadi.

XULOSA

Moychechak gul savatchasining kovak tuzilishga ega bo‘lishi uni dorivor bo‘lmagan soxta turlaridan ajratishda muhim diagnostik belgi hisoblanadi. O‘simlik tarkibida mavjud bo‘lgan xamazulen va efir moylari uning kuchli antiseptik, yallig‘lanishga qarshi hamda sedativ ta‘sirga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli moychechak zamonaviy farmatsevtika sanoatida muhim va strategik dorivor xomashyo sifatida e‘tirof etiladi. Moychechakning tibbiyot, kosmetologiya hamda pediatriya sohalarida keng qo‘llanilishi uning yuqori xavfsizlik darajasi va ko‘p qirrali biologik faolligini tasdiqlaydi. Moychechak o‘simligining morfologik va farmakologik xususiyatlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu

20-Mart, 2026-yil

o‘simlik zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sanoati uchun muhim va o‘rnini bosib bo‘lmaydigan dorivor xomashyo manbalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmatov, X.X., Ahmedov, O.A. Farmakognoziya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi Farmakognoziyasi. – Toshkent, 2019.
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants, Vol. 1–3. – Geneva: World Health Organization.
4. European Medicines Agency (EMA). Chamomillae flos: Assessment report. – London, 2015.
5. Ro‘ziyeva, G., Xolto‘rayeva, D. Moychechak o‘simligining tibbiyotdagi dorivorlik xususiyatlari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 3(4), 468–477 (2025).
6. Asqarov, I.R., Xasanova, D., Hamidova, D. Moychechak (*Matricaria chamomilla* L.) o‘simligining kimyoviy tarkibi. *The Latest Pedagogical and Psychological Innovations in Education*, 2025.
7. Sodiqova, D.G‘., Qurbonova, S. The Importance of the Chamomile (*Matricaria*) Plant. *Modern Science and Research*, 3(4):1062–1063 (2024).
8. Chamomile (*Matricaria chamomilla* L.): A Review of Ethnomedicinal Use, Phytochemistry and Pharmacological Uses. *Life (Basel)* 12(4) (2022).